

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Doudna, J. A., & Charpentier, E. (2014). "The new frontier of genome engineering with CRISPR-Cas9." *Science*, 346(6213), 1258096.
2. Jacobson, M. Z. (2017). *100% Clean, Renewable Energy and Storage for Everything*. Cambridge University Press.
3. Nakamoto, S. (2008). "Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System." Retrieved from <https://bitcoin.org/bitcoin.pdf>
4. Nielsen, M. A., & Chuang, I. L. (2010). *Quantum Computation and Quantum Information*. Cambridge University Press.

CHIN DO'ST

Jumaboyeva Muniraxon Muzaffar qizi

„TÒRAYEV SIROJ“ nomidagi ONMTT òrta-guruh tarbiyachisi

Kunlardan bir kuni Bulbul qafasda uyoqdan, bu yoqqa qarab tipirchilayotgan ekan. Yoz fasli bo'lganligi sababli uy egalari bulbulni qafasga solib tashqarida qo'yishar ekan. Tipirchilayotgan bulbulni ko'rgan Qarg'a darhol, unga yordam berish uchun bulbulning yoniga uchib boribdida qafasni ochishga harakat qilibdi, uni ko'rgan uy egasi Qarg'ani Bulbulning yonidan haydab yuboribdi.

Qarg'a shunda ham taslim bo'lmay har kuni Bulbuni qutqarish uchun uni ko'rgani borardi. Chunki, Bulbulni saqlayotgan uy egalari unga unchalik e'tibor bermas va uning ozuqalarini ham vaqtida berishmas edi. Shu sababli, Bulbul har kuni qafasdan chiqishga urinar edi.

Bir-kuni Qarg'a Bulbulning yoniga boribdida uni qutqarish uchun rossa harakat qildi. Keyin Bulbul Qarg'aga shunday dedi:

- Yo'q, Qarg'avoy sen bu joydan ketganing yaxshi, yo'qsa seni ham qaasga solib qo'yishlari mumkin-dedi.
 - Yo'q, men aslo seni bunday ozorlanayotgan paytingda hech qayerga tashlab ketmayman-dedi Qarg'a.
 - Unda sen tumshug'ing bilan qafasning kalitini ochgin, men esa eshikni ochaman dedi-Bulbul.
 - Ho'p mayli dedida:- Qarg'avoy Bulbulni qafasdan ozod qildi.
- Bundan Bulbul judayam xursand bo'ldi va Qarg'aga o'zining minnatdorchiligini bildirdi. Oradan vaqt o'tib Qarg'avoy Bulbulga shunday dedi:
- Seni qancha vaqtdan beri bu uy egalari qafasda saqlayotgan edi.

- Eh, Qarg'avoy bu uy egalari meni bir necha yildan buyon shu qafasda saqlayotgandi. Bular menga na e'tiborni, na ozuqamni vaqtida bera oldilar. Shuning uchun ham men qafasdan chiqishga harakat qilayotgandim. Hech kim menga e'tibor bermasdi, Seni uchratganim uchun Rahmat, sen sababli men ushbu qafasdan qutuldim, endi ozodlikdaman. Kel, sen bilan bir umrga do'st bo'lib qolsak dedi :- Bulbul.

- Mayli endi biz chin do'stmiz dedi:- Qarg'avoy.

- Lekin, men kunlar judayam isiyotganligi sababli, sovuq mamlakatlarga uchib ketishim kerak debdi:-Qarg'avoy.

Bulbul uzoq safarga chiqmagan, o'zga joylarni ko'rmagan ekan. Qarg'aga qarab:

- Meni ham o'zing bilan olib ket. Sendan ajralib qolishni istamayman. Bir-birimizga o'rganib qoldik. Shunday emasmi ?-debdi iltijoli ohangda.

Qarg'a esa do'stining so'zini qaytara olmay rozi bo'libdi. Ko'p vaqt o'tmay ular shimol tomonga qarab qanot qoqibdilar. Bulbul zaif bo'lib uzoqqa uchub o'rganmagan ekan. Shu sababli safarda charchab qolibdi. Lekin bunday parvoz noqulay ekan. Ular tobora shimolning sovuq havo oqimiga yaqinlashib boraveribdi.

Qarg'aning tanasiga bu havo yoqsada, Bulbulning bu sovuqqa bardosh bera olmasligini ko'rib, yo'l yarimiga yetmasdan ortga qaytishga harakat qilibdi. Bulbul do'stining bu mehribonligidan ham xursand bo'libdi, ham hijolat chekibdi. Keyin Qarg'a do'stining hijolat chekayotganini sezib shunday debdi:

- Hech qisi yo'q, bu yozni salqinroq joyda o'tkazaman. Ammo, biz shimolga uchib borganimizda, u joyning sovug'iga aslo bardosh berolmasding debdi:- Qarg'avoy.

- Sen men bilan do'stlashmasdan avval oliyjanoblik qilib hayotimni saqlab qolding. Shu sababli seni o'zimga yaqin tutdim. Men endi senday do'stni mushkul ahvolga solib qo'yishim mumkinmi?- debdi Bulbul do'stini yupatib...

Yana kuz ortidan, qish so'ngra bahor, yoz kelibdi. Qarg'alar shimolga uchishga shaylanibdi. Kunlardan bir kun Qarg'a Bulbul bilan xayrlashgani uning oldiga boribdi. Bulbul xasta bo'lib yotgan ekan. Qarg'a do'stining ahvolini ko'rib, shimolga uchishni ham, uchmaslikni ham bilmay qolibdi. Bulbulni betob holida tashlab ketishga ko'ngli bo'lmabdi. Shunda Bulbul debdi :

- Bu gal safardan qolishingni istamayman. O'tgan yili yo'l yarmidan qaytib meni sovuqdan asrab qolgan eding. Shu bilan qarzingni uzding, do'stim. Endi esa senga oq yo'l tilayman. Safaring bexatar bo'lsin!-debdi u.

- Do'stlarning bir-biriga ko'rsatgan yordamiga qarz deb qaraganlar adashadilar. Do'stlikning sharti har doim bir-birini qo'llab- quvvatlamok, ko'makka shoshilmoqdir,-debdi. Qarg'avoy.

U Bulbulning tezroq sog'ayib oyoqqa turishi uchun qo'lidan kelganicha harakat qilibdi. Safarini esa keyingi yilga qoldiribdi.

Ha, do'stlar bu siz ko'rgan o'sha Qarg'avoy edi. Endi bilib oldingizmi, yoz chillasida nega Qarg'avoy yurtimizda yurganini ?

Ha, topdingiz u sadoqatli chin do'st edi. Do'stlik- oltindan qimmat ,pul bilan o'lchab bo'lmaydigan bebaho narsadir.

BOLALARNI HAR TOMONLAMA BARKAMOL QILIB TARBIYALASHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI

Uralova Feruza Sherzod qizi

2000-yil 1-iyulda Jizzax viloyatida tug'ilgan. Hozirda Do'stlik Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomaltigi texnikumi 3-bosqich hamshiralik ishi yo'nalishi o'quvchisi BAA va Misr Xalqaro konferensiyasida ishtirok etgan hamda ko'plab imtiyozli diplomlar, sertifikatlar sohibasi.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash jarayonida badiiy adabiyotning o'rni tahlil qilinadi. Badiiy adabiyot nafaqat bolalarning nutqini rivojlantirishga, balki ularning axloqiy fazilatlarini shakllantirishga, tasavvur va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ham beqiyos ta'sir ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, ertaklar, nutq rivoji, axloqiy tarbiya, ijodiy tafakkur, kitobxonlik, pedagogika, estetik did.*

Bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, bunda badiiy adabiyot muhim o'rin tutadi. Chunki badiiy adabiyot bolalarga nafaqat bilim, balki axloqiy va ma'naviy tarbiya berishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Badiiy adabiyot orqali bolalar atrof-muhitni idrok etish, o'z fikrlarini ravon ifodalash, mustaqil tafakkur qilish, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalarida badiiy adabiyotning bolalar ruhiyatiga, tafakkuriga va axloqiy fazilatlarini shakllantirishga ta'siri juda katta. Badiiy adabiyot insonning tafakkur va ma'naviy olamini boyituvchi eng kuchli vositalardan biri hisoblanadi. Ertaklar, hikoyalar, she'rlar va dostonlar orqali bolalar hayotiy tajribani o'zlashtiradi, yaxshilik va yomonlikni farqlashni o'rganadi. Ayniqsa, xalq ertaklari bolalarning